IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: WB84241763

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 29-oktabr № 2183

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 79-moddasi va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Xudaybergenov Artur Germanovich – yozma arizasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Xamdamov Ulug‘bek Sobirjanovich – yozma arizasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Namangan viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Namangan tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Axmedov Shuxrat Saidjabbarovich – sud ishini tashkil etishda beparvoligi oqibatida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun hamda Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Bo‘stonliq tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **X.Yodgorov**